DOI

Zunnunova N.M.
Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA MEHNAT TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug‘lab kelganlar. Bizga ulardan meros bo‘lib qolgan barcha xazinalar – ilmiy, badiiy kitoblar, san’at asarlari, me’morchilik obidalari mehnat mahsulidir. Maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasining nazariy asoslari mavzusida fikr yurutilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mehnat tarbiyasi, mashg‘ulot samaradorligi, didaktik o‘yinlarning xususiyatlari,, ta’limga aloqador masalalar, mashg‘ulot jarayoni.*

Zunnunova N.M.
teacher
Kokand State Pedagogical Institute

THEORETICAL BASIS OF LABOR EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. *Our ancestors have glorified work for centuries. All the treasures that we inherited from them - scientific and artistic books, works of art, architectural monuments - are the product of labor. The article deals with the theoretical foundations of labor education in preschool educational organizations.*

Key words: *Games with rules, learning efficiency, features of didactic games, issues related to learning, playing during learning, rules of the game.*

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Mehnat farovon, baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo‘lganligi sababli ham fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat odamlarning biror bir maqsad uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashamoq mumkin emas.

Barcha tirik mavjudod nimanidir iste’mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan xayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydilar. Xudi shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudodlardan farqli odamlar kiyinishadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, ijod qilishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun tirikchilik manbai bo‘lgan pul kerak. Pul topish uchun, o‘zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari zarur.

https://wordlyknowledge.uz

Mehnat jarayonida oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini mazmunli qiladi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog‘liqlarini mustahkamlaydilar, obro‘ orttiradilar va o‘z kelajaklarini yaratadilar.Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug‘lab kelganlar. Bizga ulardan meros bo‘lib qolgan barcha xazinalar – ilmiy, badiiy kitoblar, san’at asarlari, me’morchilik obidalari mehnat mahsulidir.

Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo‘shgan al Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil al Buxoriy, A.Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishgan, yoshlarni ham mehnat qilishga chaqirishgan. Shu boisdan jahonning barcha xalqlari maqollarida bo‘lgani kabi o‘zbek maqollarida ham mehnat tarbiyasi markaziy o‘rinlarni egallagan.

Azaldan mehnatkash, tinib-tinchimas xalqimiz o‘zining mehnati bilan bog‘larni gulistonga, cho‘lni bo‘stonga aylantirib kelmoqda. Qadimda ota-bobolarimizning mehnat haqida aytilgan dono naqllari hozirga qadar ham o‘z kadrini yo‘qotgani yo‘q. Masalan:

- Mehnat qilsang, ko‘ksing tog‘, Hurmat qilsang, diling bog‘.
- Mehnatli non-shakar, Mehnatsiz non-zahar.
- Mehnat baxt keltirar.
- Mehnat qilib topganingQandu asal totganing.

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug‘laydi, uning samarasi haqida fikr yuritadi.O‘zbek bolalar yozuvchisi va shoirlari ham kattalar mehnatining mazmunini yoritib berganlar. Bunga K.Muhammadiyning “Etik”, “Bir xovuch yong‘oq”, K.Hikmatning “Suv” kabi she’rlari misol bo‘ladi.

Yuqorida aytganlarimizdan ko‘rinib turibdiki, mehnat har qanday moddiy va ma’naviy boyliklarning asosiy manbai, shu bilan birga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning muhim vositasidir. Mehnat jarayonida insoniy xislatlarning faol namoyon bo‘lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va har bir kishida ma’naviy qoniqish hosil qiladi. Har bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etishi zarur. Bolalar bog‘chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo‘lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak.

Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushinib yetishi uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o‘zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi.Bolalar quruvchilarning mehnatini kuzatishyapti, deylik. Qurilish maydonchasiga katta-katta bloklar keltirilib, ular ko‘tarma kran bilan tushiriladi. Keyin bolalar g‘isht teruvchilar, duradgorlar, suvoqchilar, tom yopuvchilar, buyoqchilar mehnatini kuzatadilar.

Bolalarni qurilish bilan tanishtirish davomida bilib olgan barcha tasavvur va tushunchalari, ularning ko‘zi oldida ajoyib bino bunyod etgan kishilar mehnatining go‘zalligi namoyon bo‘ladi. Mana tarbiyachi bolalar diqqatini chinni buyumlarga gul soluvchi kishilar mehnatiga jalb etadi. Bolalar tarbiyachi bilan

https://wordlyknowledge.uz

birgalikda ularning mohirona chizgan rasmlari natijasida chinni idishlarning har xil jilo berib turlanishidan zavqlanib, “Ularning qo‘llari gul ekan”, deydilar.

Bularning barchasi bolalarda kishilar mehnatiga muxabbat uyg‘otadi. Pedagog bolalarni mehnatning moddiy boylik keltiruvchi tomonini ham, estetik tomonini ham ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Bahor kunlarining birida tarbiyachi bolalarni daraxtlar gullab turgan boqqa olib kiradi. Gulsafsar va piyongul bilan o‘ralgan yo‘lkalarga qum sepilgan, daraxtlarning tanasi bog‘bonlar tomonidan ohak bilan oqlangan. Tepada esa gullab turgan o‘rik, gilos, olma, olcha, shaftoli, gullarning atrofida asalarilar guvillashib uchib yuribdi. Bularning hammasi bolalarda ajoyib zavqli kechinmalar uyg‘otadi. Mehnat bolalarning jismoniy, rivojlanishida zarur shartlardan biri hisoblanadi. Mehnatda bola o‘zining ishlash, harakat qilish extiyojini qondiradi, harakatlarning aniq, uyg‘un bo‘lishini ta’minlaydi. Mehnat jarayonida bola organizmining umumiy hayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi.

Bolalarning turli xil mehnat jarayonlarida ishtirok etishlari, kattalar mehnati bilan tanishishlari ularning tevarak-atrofdagi hayot haqida, kishilarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida, narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari haqida, qurilmalar va asboblar to‘g‘risida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lishlariga yordam beradi.Mehnat bolalardan diqqat, o‘tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varaq qog‘ozni buklash, kerakli o‘zunlikni o‘lchash, andazaga qarab shaklni qirqib olish kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so‘zlab berishga to‘g‘ri keladi. Bular bola nutqini yangi so‘zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog‘liq ravishda grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishiga imkon beradi.

Bolalarni eng oddiy mehnat qurollari, materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish kerak. MTMdagi mehnat ularni maktabdagi politexnik ta’limga tayyorlaydi. Mehnatning ahloqiy qimmati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mehnat har bir bolani o‘z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushinib yetishga, uning jamiyat hayotiga kirib borishiga, o‘zini shu jamiyatning a’zosi deb his etishiga imkon yaratadi.

Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o‘z ulishi borligini xis eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch xissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mehnatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.Mehnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonida ular borlikni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoniyati yaratiladi.Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.

https://wordlyknowledge.uz

Adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
2. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T:.2013 y
3. Назирова, Г. М., and Ф. М. Рахимова. "Методологические основы формирования творческой деятельности будущих педагогов-воспитателей." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 334-339.
4. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya Mixaylovna Burdina. "Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in uzbekistan." International Academic Research Journal Impact Factor 7.4 1.6 (2022): 112-118.
5. Raximova, F. M. "Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 54-57.
6. Mukhammadzhonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Problems of development of creative abilities in preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
7. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Development of pedagogical activites with preschool children in need of inclusive education."Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.
8. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. "Problems with the social attitude of the individual."Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.
9. Muxammadjonovna, Raximova Feruzaxon. "Difficulties in organizing the education and upbringing of visually impaired children of preschool age."International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 90-93.
10.Kodirova F.R., Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va va metodikasi. T. ”ISTIQLOL, 2006 y. O‘quv qo‘llanma.
11.Kodirova F.R. “Nutq o‘stirish metodikasi” U UM T.; 2012 yil.(elektron).

https://wordlyknowledge.uz